



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,  
2-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili .....	16
<b>Salim Doniyorov</b>	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish .....	21
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</b>	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich</b>	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Yunusov Dilshod Raxmatovich</b>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
<b>Aliqulova Habiba Bahranovna</b>	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri .....	36
<b>Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi</b>	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli .....	41
<b>Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna</b>	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
<b>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
<b>Asqarova Ma'mura Sadriddinovna</b>	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati .....	59
<b>Atajanova Xurjon Pirnazar qizi</b>	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend .....	64
<b>Murtozayeva Nigora Murtoza qizi</b>	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
<b>Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna</b>	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari .....	69
<b>N. A. Musayeva</b>	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari .....	76
<b>Odiljonova Kamola Abduvosit qizi</b>	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching .....	81
<b>Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari .....	84
<b>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</b>	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati .....	87
<b>Raxmanova Dilnoza Farmanovna</b>	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari .....	90
<b>Shamshaddinova Saodat Saparbayevna</b>	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti .....	93
<b>Shamuratov Asqar Abdullayevich</b>	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi .....	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения .....	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	



# O'ZBEKISTONDA ERTA TURMUSH QURISH MASALASI VA UNING PSIXOLOGIK TAHLILLARI

Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti v/b dotsenti,  
 psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda qizlarni erta turmushga berish muammosining zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi, uning ijtimoiy, demografik va psixologik jihatlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda erta nikohning asosiy sabablari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy omillar, an'anaviy qarashlar hamda ta'lim darajasining pastligi ajratib ko'rsatiladi. Shuningdek, erta turmush qurishning qizlar psixologik rivojlanishiga, ularning emotsional holatiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxsiy identiklik shakllanishiga salbiy ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Statistik ma'lumotlar asosida muammoning hozirgi holati baholanib, uni bartaraf etishning samarali yo'llari, xususan, ta'lim tizimini rivojlantirish, psixologik profilaktikani kuchaytirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** erta nikoh, qizlar, psixologik rivojlanish, ijtimoiy muammo, identiklik, emotsional holat, stress, depressiya, ijtimoiy moslashuv, gender tengligi, ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy munosabatlar, psixologik tahlil.

**Abstract:** This study provides a comprehensive analysis of early marriage among girls as a pressing social, demographic, and psychological issue in contemporary society. The research identifies the main causes of early marriage, including socio-economic factors, traditional norms, and low levels of education. Particular attention is given to the negative impact of early marriage on girls' psychological development, emotional well-being, social adaptation, and the formation of personal identity. Based on statistical data, the current state of the problem is assessed, and the need for effective preventive measures is substantiated. These include improving the education system, strengthening psychological prevention, and enhancing social support mechanisms.

**Key words:** early marriage, girls, psychological development, social problem, identity, emotional well-being, stress, depression, social adaptation, gender equality, education, socio-economic factors, family relations, psychological analysis.

**Аннотация:** В данном исследовании комплексно анализируется проблема раннего вступления девочек в брак как актуальное социальное, демографическое и психологическое явление современного общества. В работе выделены основные причины ранних браков, включая социально-экономические факторы, традиционные установки и низкий уровень образования. Особое внимание уделяется негативному влиянию раннего брака на психологическое развитие девушек, их эмоциональное состояние, социальную адаптацию и формирование личностной идентичности. На основе статистических данных проводится оценка текущего состояния проблемы, а также обосновывается необходимость разработки эффективных мер по ее предотвращению, включая развитие системы образования, усиление психологической профилактики и совершенствование механизмов социальной поддержки.

**Ключевые слова:** ранний брак, девочки, психологическое развитие, социальная проблема, идентичность, эмоциональное состояние, стресс, депрессия, социальная адаптация, гендерное равенство, образование, социально-экономические факторы, семейные отношения, психологический анализ.

## KIRISH

Bugungi kunda qizlarni erta turmushga berish muammosi global miqyosda dolzarb ijtimoiy-psixologik va demografik masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur holat nafaqat rivojlanayotgan, balki ayrim rivojlangan davlatlarda ham uchraydi, jamiyat taraqqiyoti, gender tengligi va inson huquqlarini ta'minlashga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha taxminan 640–650 million ayol bolalik davrida (18 yoshgacha) turmushga chiqqan. Har yili esa o'rtacha 12 million qiz bola 18 yoshga yetmasdan turmush qurmoqda. Bu esa deyarli har 3 soniyada bir qizning erta nikohga kirishini anglatadi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, global miqyosda har besh qizdan biri 18 yoshga to'lmasdan turmushga chiqadi. Ayniqsa, Janubiy Osiyo va Sahroi Kabirdan janubiy Afrikada bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, umumiy holatning asosiy qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, qishloq hududlarida yashovchi, ta'lim darajasi past va iqtisodiy jihatdan nochor oilalarga mansub qizlar ushbu xavf guruhiga ko'proq kiradi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, erta turmush qurish bevosita ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, kambag'allik, ta'lim olish imkoniyatining cheklanganligi, an'anaviy qarashlar va gender tengsizligi ushbu jarayonning asosiy sabablaridan hisoblanadi.

Ko'plab jamiyatlarda qizlarni erta turmushga berish ularni "himoya qilish" yoki oilaviy sharafni saqlash vositasi sifatida talqin qilinadi, biroq bu yondashuv ularning huquq va erkinliklarini cheklaydi. Erta turmushning salbiy oqibatlari ko'p qirrali bo'lib, eng avvalo, qizlarning ta'limdan uzilishiga olib keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, erta turmush qurgan qizlarning aksariyati maktabni tark etadi va bu ularning kelajakdagi kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini keskin kamaytiradi. Shuningdek, erta nikoh erta homiladorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu esa ona va bola salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ma'lumotlarga ko'ra, 18 yoshgacha bo'lgan qizlar orasida tug'ruq va homiladorlik asoratlari o'lim sabablarining yetakchi omillaridan biridir. Bundan tashqari, erta turmush qurgan qizlar ko'pincha ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qoladi, oilaviy zo'ravonlikka duch kelish ehtimoli ortadi hamda iqtisodiy mustaqillikdan mahrum bo'ladi. Bu holat nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ayollarning ta'lim darajasi va iqtisodiy faolligi jamiyat rivojining muhim omillaridan biridir.

So'nggi yillarda bu borada muayyan ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, mavjud sur'atlar yetarli emas. Mutaxassislar fikriga ko'ra, agar mavjud tendensiya saqlanib qolsa, 2030-yilga borib ham bu muammoni to'liq bartaraf etish imkonsiz bo'lib qoladi va millionlab qizlar erta nikoh qurboni bo'lishda davom etadi. Demak, qizlarni erta turmushga berish masalasi bugungi kunda o'zining ijtimoiy, psixologik va demografik oqibatlari bilan dolzarbligini yo'qotmagan murakkab muammo hisoblanadi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ta'lim tizimini rivojlantirish, gender tengligini ta'minlash, aholining huquqiy va psixologik madaniyatini oshirish hamda samarali ijtimoiy himoya mexanizmlarini joriy etish zarur hisoblanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda qizlarni erta turmushga berish masalasi O'zbekiston jamiyati uchun ham muhim ijtimoiy-demografik va psixologik muammolardan biri sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda ushbu muammoni kamaytirish bo'yicha qator huquqiy va institutsional choralar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda erta nikoh holatlari hanuz uchrab turibdi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda nikoh yoshi qonunchilik asosida erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan. Shunga qaramay, ayrim holatlarda ijtimoiy-iqtisodiy omillar, an'anaviy qarashlar va oilaviy bosim ta'sirida erta nikohlar qayd etilishi mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 20–24 yoshdagi ayollar orasida 18 yoshgacha turmush qurganlar ulushi so'nggi yillarda sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da, u hali ham to'liq bartaraf etilgan emas.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda erta turmush qurish ko'rsatkichlari asosan qishloq hududlarida, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti nisbatan past bo'lgan oilalarda hamda ta'lim darajasi yetarli bo'lmagan qatlamlarda ko'proq uchraydi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 20–24 yoshdagi ayollarning taxminan 6–7 foizi 18 yoshga to'lmasdan turmush qurgan bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida farqlanadi. Erta turmushga chiqishning asosiy sabablaridan biri sifatida qizlarning ta'lim jarayonidan erta chiqib ketishi qayd etiladi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'rta maxsus yoki oliy ta'limni davom ettirayotgan qizlar orasida erta nikoh holatlari ancha kam uchraydi.

Aksincha, ta'limdan uzilgan yoki ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamga mansub qizlar ushbu xavf guruhiga kiradi. Bundan tashqari, erta nikoh erta tug'ruq ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash tizimi ma'lumotlariga ko'ra, 18 yoshgacha bo'lgan onalar orasida homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq asoratlar yuqori bo'lib, bu ona va bola salomatligi uchun muayyan xavf tug'diradi. Shu bois, mamlakatda reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va tibbiy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qizlarni erta turmushga berishning oldini olish bo'yicha qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, maktab ta'limini majburiy 11 yillik shaklga o'tkazish, qizlarning oliy ta'limga qamrovini kengaytirish, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati hamda aholining huquqiy ongini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlari ushbu ko'rsatkichning pasayishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda an'anaviy stereotiplarning saqlanib qolayotgani, iqtisodiy omillar va ijtimoiy nazoratning



yetarli emasligi muammoning to'liq bartaraf etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, erta nikohlarning oldini olishda kompleks yondashuv - ya'ni ta'lim, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash va huquqiy tizimlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish zarur hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qizlarni erta turmushga berish masalasi psixologik nuqtai nazardan murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u shaxs rivojlanishi, identiklik shakllanishi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik davri inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanib, aynan shu davrda shaxsning mustaqil fikrlashi, qadriyatlar tizimi, hayotiy maqsadlari va "Men-konsepsiya"si shakllanadi.

Erta nikoh esa ushbu tabiiy psixologik rivojlanish jarayonini sun'iy ravishda tezlashtiradi yoki buzadi. Natijada qizlarda ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik va shaxsiy identiklik inqirozi yuzaga kelishi mumkin. Chunki o'smir hali ijtimoiy rol sifatida "oila a'zosi", "turmush o'rtog'i" yoki "ona" rolini to'liq anglab yetmagan bo'ladi. Bu esa psixologik moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta turmush qurgan qizlarda stress, tashvish (anksiyete), depressiv holatlar va past o'z-o'zini baholash darajasi ko'proq uchraydi. Buning asosiy sababi - ularning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi torayib borishi, tengdoshlar bilan muloqotning cheklanishi hamda shaxsiy erkinlikning qisqarishidir.

Oila ichidagi yangi majburiyatlar, mas'uliyatning ortishi va rollar to'qnashuvi psixik zo'riqishni kuchaytiradi. Shuningdek, erta nikoh ijtimoiy izolyatsiya holatiga olib kelishi mumkin. O'smir qizlar tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotdan uzilib, o'zini yolg'iz va tushunilmagan his qilishi ehtimoli ortadi. Bu esa ijtimoiy moslashuvning sustlashuviga, kommunikativ ko'nikmalarning yetarli rivojlanmasligiga sabab bo'ladi.

Erta turmushning yana bir muhim psixologik jihati - bu qaror qabul qilishda mustaqillikning cheklanganligidir. Ko'plab holatlarda bunday nikohlar qizning shaxsiy xohishsiz, ota-ona yoki ijtimoiy bosim ostida amalga oshiriladi. Bu esa ichki norozilik, frustratsiya va psixologik qarshilikni yuzaga keltiradi. Natijada shaxsda passivlik, tashabbuskorlikning pasayishi va hayotga nisbatan befarqlik shakllanishi mumkin.

Bundan tashqari, erta turmush oilaviy munosabatlar sifatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Psixologik yetuklik darajasi past bo'lgan shaxslar o'rtasida nizolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalari yetarli bo'lmaydi. Bu esa oilaviy kelishmovchiliklar, konfliktlar va ba'zi hollarda zo'ravonlik ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, ijobiy jihat sifatida ayrim holatlarda oila tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lsa, qizlar asta-sekin yangi ijtimoiy rolga moslashishi mumkin. Biroq bu holat ko'proq istisno xarakterga ega bo'lib, umumiy tendensiyani o'zgartirmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qizlarni erta turmushga berish ularning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, shaxsiy identiklik shakllanishi, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini izdan chiqaradi. Shu sababli mazkur muammoning oldini olishda psixologik profilaktika, oilaviy maslahat xizmatlarini rivojlantirish, yoshlar ongida mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda qizlarni erta turmushga berish holatlari so'nggi yillarda kamayib borayotgan bo'lsa-da, u hali ham muhim ijtimoiy muammo sifatida e'tiborda qolmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun qizlarning ta'limga qamrovini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, aholining huquqiy va psixologik madaniyatini yuksaltirish hamda samarali profilaktik choralarini izchil amalga oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mathur S., Greene M., Malhotra A. Too Young to Wed: The Lives, Rights, and Health of Young Married Girls. Washington, DC: International Center for Research on Women, 2003.
2. Nour N. M. Child marriage: a silent health and human rights issue. Rev Obstet Gynecol. 2009;2(1):51–56.
3. Pourtaheri A., Mahdizadeh M. S., Tehrani H. va boshqalar. Individual and interpersonal factors influencing child marriage: sifatli tahlil. 2023, 45-b
4. Koyuncu Z., Evcilb F. Y. Child marriage in highprevalence countries: Scientific publication trends and recommendations. Vulnerable Children and Youth Studies (2025).
5. UNICEF. Child Marriage Around the World - erta nikohning global holati, sababoqibatlari va oqibatlari bo'yicha ma'lumotlar.
6. UNICEF. Preventing Child Marriage - erta nikohning salbiy oqibatlari va oldini olish choralari yorituvchi rasmiy resurs.
7. Мамбетжанов Q. Физические и психологические последствия раннего брака. Toshkent, 2024 y 56-b.
8. Ochilova O. Erta turmush qurishning salbiy oqibatlari va uning oldini olish.
9. Sadiqova G. O. Psychological Basis of Early Marriage and Problems in Family Relationships 2024.y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.